



Musurmanova Aynisa Musurmanovna,
*“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti direktori o‘rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor*

INSON QADRINI ULUG‘LASH – FARAVON MAHALLA POYDEVORI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2022-yilni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”, deb e‘lon qilinishining maqsadi, mamlakatimizda mahalla institutini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyati, mahallada inson qadr-qimmatini namoyon etish mezonlari yuzasidan taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: mahalla, noyob tizim, ijtimoiy institut, mehr-muruvvatli jamoa, obod mahalla, inson qadrini e‘zozlash, xalq manfaatlarini ta‘minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish, ma‘naviyat poydevori.

Аннотация. В данной статье раскрываются цель объявления 2022 года “Годом обеспечения интересов человека и укрепления махалли”, содержание и суть проводимых реформ в развитии института махалли в стране, даны предложения и рекомендации по критериям проявления человеческого достоинства в махалле.

Ключевые слова: махалля, уникальная система, социальный институт, сострадательное сообщество, благополучная махалля, уважение человеческого достоинства, обеспечение интересов народа, развитие предпринимательства, обеспечение занятости населения, сокращение бедности, основа духовности.

Annotation. This article reveals the purpose of declaring 2022 the “Year of Ensuring Human Interests and Development of the Mahalla” the content and essence of the ongoing reforms in the development of the institution of the mahalla in the country, proposals and recommendations on the criteria for the manifestation of human dignity in the mahalla were given.

Key words: mahalla, unique system, social institution, compassionate community, prosperous mahalla, respect for human dignity, ensuring the interests of the people, developing entrepreneurship, providing employment to the population, poverty reduction, the basis of spirituality.

*“Mahalla xalq bilan davlat o‘rtasidagi
ko‘prik bo‘lishi kerak. Odamlarning quvonch-u
tashvishidan doimo xabardor bo‘lish
mahallaning asosiy vazifasidir”.*

Sh.M.Mirziyoyev

Bugungi kunda mamlakatimizda xalq manfaatlarini himoya qilish, insonlarning qadr-qimmatini oshirish, mahalla institutini takomillashtirish, oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 367-son

qarorlari huquqiy-me'yoriy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston xalqiga yo'llagan yangi yil tabrigida 2022-yilni **"Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"** deb taklif etilishi negizida olam-olam ma'no bor. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Inson qadrini ulug'lash yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi **o'rin** tutadi. Mahalla tinch bo'lsa yurt tinch bo'ladi, mahalla obod bo'lsa mamlakat obod bo'ladi".

Mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida tarixiy milliy qadriyat hisoblanadi. Mahallalar, guzarlar Sharqda azal-azaldan noyob tuzilma sifatida dunyo xalqlari tomonidan e'tirof etib kelinadi. Jumladan, Sharq ilk Uyg'onish davri namoyondalari Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", IX asr tarixchisi Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarlarida qadimdan Movarounnahrda mahallalar, guzarlar mavjudligi ta'kidlanadi.

Mahallani **qarindosh-urug'chilikka, qo'ni-qo'shnichilikka**, mahalladoshlikka ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik, ma'naviy jihatdan **asoslangan** o'z ma'muriy chegara birligiga ega **jamo**a deyish mumkin.

"Azal-azaldan qishlog'-u mahallalar (qishloq mahallalarida) o'zini o'zi boqishga, moddiy jihatdan ta'minlab turishga qodir bo'lgan. Qishloqlarda odamlar, asosan, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ayni vaqtda qishloqlarda tegirmonlar, moyjuvozlari ham ishlab turgan. Qishloqlarda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik yaxshi rivoj topgan.

Shahar mahallalarida, asosan, hunarmandchilik – kosiblik, temirchilik, kulolchilik, zardo'zlik, patdo'zlik, to'qimachilik kabi kasb-korlar farzandlarga otameros bo'lib kelgan. Shaharliklar, asosan, savdo ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar. Hayot va turmush baholi qudrat rivoj topib boravergan. Yashash uchun eng muhim narsalar: un, guruch, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, gazlama, kiyim-kechak, gilam, yog'ochsozlik materiallari, idish-tovoq, uy-ro'zg'or anjomlari, ketmon, tesha hamma-hammasi qishlog'-u shahar mahallalaridagi kichik korxonalar va xususiy ustaxonalarda, ishlab chiqarish vositalari hisoblangan boshqa

korxonalarda ishlab chiqilgan. Tub yerli aholi hech vaqt o'zgalar yordamiga muhtoj bo'lmagan, boshqa mamlakatlardan sadaqa so'ramagan"¹.

Mahalla ahli shu tariqa bir-birini qadrlab, mehr-muruvvatli jamoa tarzida birlashib, tinchlik va barqarorlikni ta'minlab hayot kechirgan. Mahalla ahlini birlashtirgan vositalar: sulolaviy kasb – hunarmandchilik, oilaviy, milliy urf-odatlar, rasm-rusmlar, an'analar, diniy va milliy marosimlar, axloq-odob mezonlari, "Kichik Mehrjon", "Katta Mehrjon", "Navro'z", "Sada", "Angom", Gullar sayli, Hosil bayrami va diniy bayramlar hisoblangan.

Mahalla tizimining har bir davrga taaluqli o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Mazkur tizim faoliyatining tarixiy taraqqiyot bosqichlari tahlilidan shu narsa ma'lumki, u har bir tuzum rivojini ta'minlovchi asosiy poydevor hisoblanadi.

Darhaqiqat, **O'zbekiston** Respublikasida 2017-yildan so'ng mahalla va oila tizimini takomillashtirish borasida **shiddat bilan** rivojlanish bosqichi boshlandi. Mahallalarda **inson qadrini e'zozlash, xalq manfaatlarini ta'minlash** maqsadida mamlakat tarixida bo'lmagan tub burilish amalga oshirildi. Jumladan:

– mahalla institutini takomillashtirishning huquqiy poydevori mukammallashtirildi. So'nggi **5 yil** mobaynida soha faoliyatiga oid **42 ta** qonun hujjati, shu jumladan, **4 ta** qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **5 ta** Farmoni va qarori, hukumatning **33 ta** qarori qabul qilindi, **50 dan ortiq** qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

– mahallaning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolar yig'inlari ishini tashkil etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, sohaga malakali, boy hayotiy tajribaga ega va fidoyi kadrlarni jalb etish uchun fuqarolar yig'ini raisining uchta o'rinbosari, ikkita maslahatchisi, oilalar soni 2 000dan oshganda bitta oila va xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassis lavozimlari kiritildi hamda fuqarolar yig'inining ikkita yangi komissiyasi tashkil etildi. Shuningdek, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish bo'yicha yangi tizim yaratildi;

¹ Миралимов Ш. Махалла меҳри. – Тошкент: Наврӯз, 1994. – Б. 66.

– mahallalarda istiqomat qiluvchi fuqarolar manfaatlarini ta'minlash, qadr-qimmatini ulug'lash bo'yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida eng quyi bo'g'in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan, tamoman yangi **“Mahallabay”, “Xonadonbay”** vertikal tizimi joriy etildi;

– mahallani xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli “ko'prik” bo'lishini amalda ta'minlash, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha **“Mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla”** tamoyili asosida ijtimoiy hamkorlik tizimi joriy qilindi;

– **“Obod va xavfsiz mahalla”** tamoyili asosida mahallalarda og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, ehtiyojmand oilalar turmush sharoitlarini yaxshilash uchun ularga uy-joylar, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar berishning insonparvar mexanizmi yo'lga qo'yildi. Jumladan, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarni qulay sharoitlarga ega arzon va shinam uy-joy bilan ta'minlash, zarur imtiyoz va afzalliklar berish va kambag'allikni qisqartirish mexanizmi yaratildi.

Buning uchun mamlakatimiz mahallalari tarixida bo'lmagan:

– **“Temir daftar” joriy etildi. U orqali mahallalardagi ishsiz fuqarolar** bandligini ta'minlash; tomorqadan daromad manbayi sifatida foydalanish uchun ko'maklashish; tadbirkorlikka jalb qilish; moddiy yordam hamda tibbiy xizmat ko'rsatish; kambag'allikning oldini olish;

– **“Ayollar daftari” joriy etildi. “Ayollar daftari”ga 30 yoshdan yuqori 9 toifadagi** ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlash, bilim va kasb o'rganishga, moddiy ta'minotga ehtiyoji bo'lgan, shuningdek, bandligi ta'minlanishi kerak bo'lgan, ehtiyojmand barcha xotin-qizlar kiritiladi. Unga **“Ayollar daftari”**ga kiritilgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash; tomorqadan daromad manbayi sifatida foydalanish uchun ko'maklashish; oilaviy va xususiy tadbirkorlikka jalb qilish; hunarmandchilikni tashkil etish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashda ko'maklashish, nogironligi bo'lgan ayollarga moddiy yordam ko'rsatish; turar joy ijarasi uchun kompensatsiya

to'lash; tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatishning **yangi tizimi** yaratildi;

– **“Yoshlar daftari” joriy etildi.** Unga kiritilgan fuqarolar bo'yicha: kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish; bandlikni ta'minlash; tadbirkorlikka jalb qilish; xorijda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini tashkil etish; ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarining mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida yillik o'qish xarajatlarini to'lab berish; tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish ishlari yo'lga qo'yildi;

– mahallalardagi oilalarning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va mustahkamlash zahirida jamiyatning ma'naviy takomiliga erishish maqsadida mahallada va oilada ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turishda mahallaning o'rni va ahamiyatini oshirishga e'tibor kuchaytirildi;

– jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila instituti, fuqarolik jamiyati institutlarining ta'lim va tarbiya muassasalari bilan **o'zaro** hamjihatligi mexanizmini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali, uzviy va uzluksiz amaliy hamkorligi ta'minlandi;

– mahallalardagi notinch va muammoli oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla fuqarolarini vayronkor g'oyalardan, har xil yot mafkuralardan himoya qilish maqsadida **“Jaholatga qarshi ma'rifat”** tamoyili asosida sog'lom ma'naviy muhit yaratishga asosiy e'tibor qaratildi;

– mahallalarda turli xil nizo, ziddiyat, tazyiq, notinchliklar, oilaviy ajrimlar, erta turmush, erta tug'uruq, qarindoshlar **o'rtasidagi** nikohning zararli oqibatlari oldini olish, keksa avlod ma'naviyati va boy madaniy tarixiy meros vositasida yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalash, milliy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusmlar vositasida mahallalar, oilalar mustahkamligi, iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi, tinchligini ta'minlash maqsadida **Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyalari** tashkil etildi;

– mamlakatimizda qizlarni oliy ta'lim muassasalariga qamrab olish, ularga davlat

tomonidan barcha shart-sharoitlarni yaratish borasida muhim yangiliklarga asos solinmoqda. Jumladan, iqtidorli qizlarning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, ehtiyojmand oilalar farzandlarini ta'lim tizimida qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim yaratildi. Oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda **ehhtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 baravarga ko'paytirib, 2 mingga yetkazish** belgilab olindi. A'lo baholarga o'qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun **maxsus stipendiyalar** joriy etildi;

– mahallalarda yoshlarni, xotin-qizlarni, umuman, barcha toifadagi fuqarolarni ma'nan va jismonan sog'lomlashtirish, mehnatdan bo'sh vaqtni samarali o'tkazish maqsadida madaniyat va sport maydonlari, binolar qurilmoqda, turli sport hamda madaniyat turlari bo'yicha musobaqa, ko'rik-tanlovlar tashkil etish keng quloq yozmoqda;

– mahallalarni obodonlashtirish, yashil hududga aylantirish, kambag'alchilikning oldini olish, fuqarolarning hayot tarzini yaxshilash borasida tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Bularning barchasi inson manfaatlari, qadr-qimmatini yuksaklikka ko'tarish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hisoblanadi.

Mamlakatimizda mahalla tizimidagi bunday olamshumul islohatlar nima maqsadda amalga oshirilmoqda? **Inson qadr-qimmatini**, hayotidan roziligi qanday mezonlar asosida namoyon bo'ladi? Mahallada tinch, osoyishta, farovon yashashning mazmun va mohiyati qaysi toifa, qaysi jinsdagi fuqaro bo'lishidan qat'i nazar o'z hayotidan, davlat va jamiyatdan rozi bo'lib, kundalik turmush talablariga qat'iy rioya etib yashashdan iboratdir.

Buning uchun mahallada, oilada yashovchi har bir fuqaro o'z ota-onasi, sulolasi, qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilari, do'stlari, mehnat jamoasi, mahalladoshlari bilan mehr-oqibatli, bir-birlariga saxovatli, insonparvar bo'lishi, ya'ni mahalladoshlar taqdiriga beparvo bo'lmaslik, "Qo'shning tinch – sen tinch" tamoyiliga amal qilishi. Milliy an'analarga, urf-odatlariga sadoqatli bo'lishi, ulardan g'ururlanishi va umriboqiyiligini ta'minlash

uchun fidoyilik qilishi. Yashayotgan hududi, mahallasi, oilasi tarixini mukammal bilishi va ularni mamlakat miqyosida avloddan avlodga yetkazishda vijdonan yondashishi. Avlod-ajdodlarining eng noyob fazilatlari, axloq-odob qadriyatlari, kasb-hunarlari, sulolaviy an'analarni boyitishi va el-yurt ichida namoyon etishi. Turmushining har soniyasida kelajak avlodni ulug'vor maqsadlarga yetaklovchi iz qoldirish uchun faqat ezgu ishlarni qilishi. Mahallasining, oilasining obodligi, tinchligi, xavfsizligi uchun fidokorlik, tashabbuskorlik va ijodkorlikni namoyon etishi, sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit yaratish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi, kommunikativ kompetentlik mezonlariga rioya etishi. "Halollik vaktsinasi" bilan emlangan bo'lishi va "jaholatga qarshi – ma'rifat" g'oyasiga amal qilishi, oilaparvarlik, mehnatsevarlik, xalqlararo, millatlararo totuvlikka rioya etishi, turli xil zararli odatlardan, salbiy holatlardan oila a'zolari, mahalladoshlarni avaylab-asrashi. "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona", "Otang – mahalla, onang – mahalla", "Bolaning begonasi bo'lmaydi", "O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!" kabi sharqona tarbiya tamoyillariga rioya etishi. Boqimandachilik kayfiyatidan yiroq bo'lishi, ijtimoiy va ma'naviy yordamga muhtojlar, boshiga mushkulot tushganlarga insonparvarlik yordami berishi, korrupsiya, xiyonat, jinoyat, psixologik tushkinlik, tazyiq va zo'ravonliklarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lishi kabi mezonlarga amal qilishi lozim.

Shunday qilib, ko'p millatli O'zbekistonda mahalla azal-azaldan baxt, mustahkam va farovon hayotni ta'minlovchi maskandir. Mahallada inson qadr-qimmatini, mehr-oqibati, obro'-e'tibori, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi namoyon bo'ladi. Shuning uchun, unda dunyoga kelib, shakllanib, jamiyat taraqqiyoti uchun o'zining munosib ulushini qo'shadigan har bir fuqaro mahallaning gullab-yashnashi, obodligi, xavfsizligi, farovonligi uchun Vatan, xalq oldida mas'ul ekanligini unutmasligi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 3-fevraldagi "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4944-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 2-apreldagi "Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5700-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 3-dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi "Fuqarolar yig'inlari faoliyati samaradorligini baholashning reyting tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 485-son [qarori](#).
6. Мусурманова О., Қуронов М., Абдужаббарова М. Маҳалла – ҳаёт қузғуси. Услубий қўлланма. – Тошкент: YOSHLAR MEDIAPRINT, 2021. – Б. 105.
7. Musurmanova O. Egamberdiyeva N., Abduramanov X., Mavlonov B. "Mahalla – yorug' yuzimiz va vijdonimiz ko'zgusi". (Ўзбек, рус ва инглиз тилларида) – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi, 2021. – Б. 80.
8. Мусурманова О. Аёллари ардоқланган юрт. Услубий рисола. – Тошкент: Зарварак нашриёти, 2021. – Б. 44.
9. Қодиров А., Қуронов М., Мусурманова О. ва бошқалар. Фазилатли авлод. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. 3-қисм. [Матн]: 7-18 ёшли болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2019. – Б. 256. (2020 йил, январь)
10. Musurmanova A.M. The scientific and pedagogic foundation of training social activeness of youth // <https://journal.fledu.uz/>. "Ўзбекистонда хорижий тиллар" илмий-методик электрон журнал. – Тошкент, 2017 йил, – № 3. – Б. 168-172.
11. Musurmanova A.M. Family reading as a factor of spiritual and moral development of the child. The Way of Science. International scientific journal (ISSN 2311-2158) 2018. – № 1 (47). – pp. 70-72.
12. Musurmanova A.M. Improving Mechanisms of interaction between Family institutions and Educational institutions in Developing Spiritual Culture of Adolescents at Social and Right Risk Groups Eastern European scientific journal (ISSN 2199-7977) Aufgabe 2-2018. – P. 62-67.
13. Мусурманова А. Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. "Проблемы педагогики" научно-методический журнал. – № 1(33) февраль. – Москва, 2018. – С. 5-7.